

GʻAFUR GʻULOMNING “MENING OʻGʻRIGINA BOLAM” HIKOYASI
TARJIMASIDA MILLIYLIKNING AKS ETTIRILISHI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7481947>

Xalimova Nilufar Abduhafizovna

mustaqil tadqiqotchi

“Ipak yoʻli” turizm va

madaniy meros xalqaro universiteti,

Samarqand, Oʻzbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oʻzbek tilidan ingliz tiliga qilinayotgan tarjimalar haqida, xususan, Gʻafur Gʻulomning “Mening oʻgʻrigina bolam” (1965) hikoyasi tahlili xususida soʻz yuritiladi. Ushbu hikoyada berilgan milliylikni ifodalovchi ibora va urf-odatlarining inglizcha tarjimasi tahlil qilindi.*

Kalit soʻzlar: *oʻzbek hikoyachiligi oʻgʻri, tiriklik, qush uyqusi, urf-odatlar, mentalitet.*

Abstract: This article is written about translations from Uzbek into English, in particular, about the analysis of Gafur Gulam's story "My thief boy"(1965) . In this article the translation of expressions and customs that represent the nationality was analyzed.

Key words: Uzbek stories, thief, life, bird's sleep,uzbek traditions, mentality.

Oʻzbekistonimizning mustaqillikka erishishi, oʻzbek tilining davlat tili maqomini olishi, yurtimizning xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarni mislsiz oʻsishi, chet tilini oʻrganishga qiziqishning kundan-kunga oshib borishi, Oʻzbekiston Respublikasi uchun kadrlar tayyorlash boʻyicha Milliy dasturning qabul qilinganligi, olimlar va pedagoglar oldiga chet tilini oʻqitish boʻyicha yangi darsliklar, qoʻllanmalar, lugʻatlar,

dasturlar va boshqa didaktik materiallarni yaratishni muhim vazifa etib belgilamoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, millatlararo totuvlik, hamkorlik va hamjihatlik butun dunyo xalqlari o‘rtasida mustahkamlanmoqda va rivojlanmoqda. Mana shunday rivojlanishlar natijasi sifatida badiiy adabiyotda qilinayotgan tarjimalarni ham kiritishimiz mumkin. Badiiy tarjima mana shu aloqalarni mustahkamlash uchun yana bir ko‘prik vazifasini bajaradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Badiiy tarjima har bir xalqning ma‘naviy ko‘zgusi bo‘lmish asarlarini boshqa xalqqa namoyon etish, yetkazish uchun quroldir. Zero, mana shu asarlar har bir xalqning milliy o‘ziga xosligini, turmush tarzi, urf odatlarini o‘zida aks etadi. Biz o‘zbek tilidan ingliz tiliga qilinayotgan tarjimalar soni kundan-kunga oshib borayotganiga ham guvohmiz va bundan albatta mamnunmiz. Mana shu tarjima asarlar qatorida Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining tarjimasi “The scorpion from the Altar”, “O‘tkan kunlar”-“The days passed by”, Pirimqul Qodirovning Yulduzli tunlar asari tarjimasi “The starry nights”, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”-“The naughty boy” asarlarining tarjimalari, Oybekning “Navoiy” asari tarjimalarini va ko‘plab hikoyalarning tarjimalarini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu maqolada so‘z yuritmoqchi bo‘lganimiz G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidir. Ushbu hikoya barcha adabiyot ixlosmandlari uchun tanish va qadrdon bo‘lib qolgan hikoyalardan biridir. XX asr o‘zbek adabiyotini biz 4 davrga bo‘lishimiz mumkin.

1. Marifatchilik adabiyoti
2. Jadid adabiyoti
3. Sho‘rolar adabiyoti
4. Mustaqillik davri adabiyoti [2; 7]

G‘afur G‘ulom kabi ko‘plab ijodkorlarning urinishlari va mehnatlari natijasi sifatida bu davr adabiyoti eng mukammal asarlar, chiroyli nasr va nazm bilan boyitildi. Ayniqsa bu davr o‘zbek hikoyachiligining eng mashhur namunalari

yaralgan davr bo‘ldi. “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi ham ana shu davrda yaratildi va mana shu davrning bor timsolini namoyon etdi, urush davrida odamlarning hayoti qay darajada og‘ir kechganini oshkor eta oldi. Ushbu hikoya o‘sha davr qiyinchiliklarini, butun dunyo xalqlarining og‘ir davrni boshidan kechirganlarining isboti sifatida ko‘rilishi mumkin.

Mana shunday XX asrning eng sara hikoyalari tarjima qilib, bu hikoyalarni butun dunyoga tanitishga erisha olgan tarjimonlardan biri Mahmuda Saydumarovadir. 2012-yilda AQSHda nashr etilgan “A collection of Uzbek short stories” kitobi XX asr o‘zbek adabiyoti hikoyachiligining eng sara namunalarini o‘z ichiga olgan. Ushbu tarjima to‘pamidan “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi ham joy olgan. “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi 1917-yil voqealarini hikoya qiladi. Hayotiy qiyinchiliklar odamlarning o‘zlari xoxlamagan ishlar bilan shug‘ullanishga, xoxlamasa-da, o‘g‘irlik qilishga majbur etadi. Urush ko‘plab millatlar uchun halokat olib keldi. Ushbu hikoyadagi Qora buvi va o‘gri o‘rtasidagi suhbatda ham mana shu hayot qiyinchiliklari namoyon bo‘lgan. Shuning bilan birga o‘zbeklarning urf-odatlarini, mentalitetga xos bo‘lgan udumlar va so‘zlarni uchratish mumkin.

Mana shunday milliy mentalitetga xos bo‘lgan so‘zlarning tarjimasi xususida so‘z yuritsak. Qora buvi o‘g‘rilikka kirganini bila turib, o‘g‘riga o‘zbeklarga xos bo‘lgan mehribonlik bilan gapiradi. Ushbu hikoyadagi o‘zbek tilida uchraydigan frazeologizmlar va maqollarga diqqat qaratadigan bo‘lsak: “-biror yerga o‘tib mizg‘iganday qush uyquasi qilaman” iborasini “-and drowse off just like birds do” deb tarjima qilgan. Qush uyquasi o‘zbek tilida qay ma’no ifodalagan bo‘lsa, ingliz tilida ham shu ma’no saqlanib qolgan.

*“-Zamonning o‘zini ko‘rib turibsan, **tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko‘ziday non anqoga shapig’.**”*- deb aytadi Roqiya buvi o‘g‘riga. [3; 131]

*“-You can see that life is hard; it is harder than rock. And it is **even harder to earn a loaf of bread even if it’s the size of a camel’s eye.*** [4;26]

Tarjima jarayonida asl ma'noni saqlab qolish uchun ham ba'zi hollarda iboralarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilgan ma'qul. Tarjima tilida ushbu iborada ekvivalent topilsa-da, asl ma'no o'zgarishi mumkin. Yana bir iboraga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

*-To'g'ri aytasiz buvijon, -dedi o'g'ri, -mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, **bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak.***

*-You speak the truth, grandmother,- the thief said. I also have a wife, two children, and my old mother to take care of. Like they say, **a chicken needs both seeds and water to survive;** so I have to provide for my family.*

Ushbu ibora tarjimasida live so'zidan ko'ra survive so'zi ishlatilgan va bu aynan o'sha davrni yanada jonliroq ko'z oldimizga keltirishga xizmat qilgan deb aytish mumkin. Chunki urush davrida odamlarning "tirikchiligi toshdan qattiq" edi va ular yashab qolish maqsadida o'g'rilikka ham qo'l urishga majbur bo'lgan.

O'zbek millatining asl xarakterini boshqa xalqlarga ko'rsatish uchun tarjima asarlar alohida o'rin egallaydi. Ushbu hikoyada ham yana bir lavhaga e'tibor qaratsak:

-Bu gaping ham to'g'ri o'g'rigina bolam, Ammo-lekin ehtiyot bo'l. El-yurtning oldida tag'in badnom bo'lib qolmagin, - dedi bizning kampir.

-You have a point my thief boy; just be careful. Do not get your reputation spoilt in front of people,-my grandmother said.

Qora buvi nafaqat o'zinig nabiralarini, balki begona bo'lsa-da, o'g'rining ham el-yurt oldidagi obro'si haqida onalarcha qayg'uradi. O'zbek onalariga xos holat. Bu o'zbek tilidagi "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" iborasini ham yaqqol ochib bergan. Ushbu hikoyaning yana bir jumlasida o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan urf-odatni ko'rishimiz mumkin. O'zbek xonadoniga mehmon kelsa, ketar chog'i qo'lga uyda bor shirinlik yoki non bilan kuzatishadi, quruq jo'natishmaydi. Ushbu asarda ham Roqiya buvi "qutlug' uy"dan hattoki o'g'rini ham quruq

jo'natgisi kelmaydi. O'zining qiyin ahvoriga qaramay, o'g'riga ham yordam bergisi, nimadir berib yuborgisi keladi.

Mana shunday asarlar o'zbek adabiyotida juda ko'p. Bu kabi tarjimalar sonini ko'paytirish adabiyotimizni, madaniyatimizni butun dunyo ahliga ko'rsatish uchun imkoniyat yaratib beradi. Buning uchun esa, tarjimonlar o'zlarida katta mas'uliyatni his etgan holda harakat qilishlari, eng sara asarlarning tarjimalarini mahorat bilan tarjima qilishlari lozim.

"Tarjimon - deb yozadi A.Muxtor, - o'zida badiiy adabiyotni yaratuvchi ijodkorlik ma'suliyatini chuqur his etishi kerak, u o'zining siyosiy va adabiy bilimini, badiiy mahoratini oshirish ustida qunt bilan ishlashi zarur... Tarjimon uchun keng badiiy til savodxonligi kerak: yozuvchilik mahorati, obrazli fikrlay bilish, kuzatuvchanlik, turmushni chuqur bilish nihoyatda zarur" .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saydulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. «Yangi asr avlodi» Toshkent, 2005
2. G'afur G'ulom. Mening o'g'rigina bolam. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. 1993.
3. Mahmuda Saydumarova. A collection of Uzbek short stories. Bloomington, IN, USA. 2012
4. <https://fayllar.org/navoiy-davlat-pedagogika-instituti-xorijiy-tillar-fakulteti-in.html?page=2>